



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- YILDA TOSHKENT VILOYATINING YALPI HUDUDIIY MAHSULOTI




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilda Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (*keyingi o'rinlarda –YAHM*) hajmi joriy narxlarda 82 148,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilga nisbatan taqqoslaganda 10,7 %ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020- yil yakunidagi narxlarga nisbatan 113,7 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 11,2 %ga yetdi.

Yalpi hududiy mahsulot




2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'ati, o'tgan yilning mos davriga nisbatan
	2020- yil	2021- yil	
I. YAHM, jami	65 243,8	82 148,4	110,7
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	62 421,1	79 003,1	110,7
Mahsulotga sof soliqlar	2 822,7	3 145,3	111,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	62 421,1	79 003,1	110,7
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	14 530,1	17 632,7	103,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	32 948,2	42 562,2	112,5
Sanoat	29 899,6	38 650,8	112,6
Qurilish	3 048,6	3 911,4	111,7
Xizmatlar	14 942,8	18 808,2	113,2
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 668,4	4 589,6	110,9
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 765,9	3 677,5	122,4
Boshqa xizmat tarmoqlari	8 508,5	10 541,1	111,2

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 28 163,9 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 12,0 %ga yuqoridir.

2020-2021- yillarda aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o‘sish sur‘atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,2 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,8 %ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 22,3 %ni, sanoat tarmog‘i 48,9 %ni, qurilish 5,0 %ni va xizmatlar sohasi 23,8 %ni tashkil qildi.

2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan %da)


	2020- yil	2021- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,7	96,2
Mahsulotga sof soliqlar	4,3	3,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	23,3	22,3
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	52,8	53,9
Sanoat	47,9	48,9
Qurilish	4,9	5,0
Xizmatlar	23,9	23,8
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,9	5,8
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,4	4,7
Boshqa xizmat tarmoqlari	13,6	13,3

2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan %da)



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 22,3 %), sanoatda – 112,6 % (48,9 %), qurilishda – 111,7 % (5,0 %), xizmatlar sohasida – 113,2 %ni (23,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,9 % (5,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 122,4 % (4,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 111,2 % dan (13,3 %) iborat bo'ldi.

2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan %da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,9 f.p. (2020- yilda – 0,1 f.p.), sanoat tarmog'i – 5,8 f.p. (2020- yilda – 2,5 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,5 f.p. (2020- yilda – 0,3 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,0 f.p. (2020- yilda salbiy 0,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,5 f.p. (2020- yilda – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2021- yilda YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan %da)



2021- yilda YAHM deflyatori indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 113,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 116,8 %, sanoat hamda qurilishda – 114,8 %dan qayd etildi.

2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan %da)



2021- yilda kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2021- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 46,8 %ni tashkil qildi (2020- yilda – 49,2 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining o'sishi bilan bog'liq.

